



NAZMIY ASARLAR QIYOSI (ALISHER NAVOIY VA BOBUR ASARLARI MISOLIDA)

*Muallif: Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich
talabasi*

Normamatova Shohista

*Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
Adabiyotshunoslik kafedrasи o'qituvchisi, PhD,
Dots, Abdumurod Arslonov*

Kirish. O'zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan ilmiy-ma'rifiy meros beqiyosdir. Ular nafaqat badiiy asarlar, balki nazariy, diniy, axloqiy va ilmiy-ma'rifiy yo'nalishdagi bitiklar orqali ham o'z davrining ilmiy tafakkuri va madaniy dunyoqarashini shakllantirishga katta hissa qo'shganlar. Ularning nazmiy asarlari — ya'ni ilmiy, diniy, axloqiy va nazariy fikrlar mujassam bo'lgan she'riy matnlari — bugungi kunda ham dolzarb ilmiy tahlil obyektidir.

Asosiy qism. Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki yirik mutafakkir va olim sifatida ham tanilgan. U o'z nazviy asarlarida til, adabiyot, axloq, din va falsafaga oid chuqur ilmiy mulohazalarini bayon etadi.

"Sirojul-muslimin" (Musulmonlar chirog'i)- ushbu asar islomiy axloq, odob-axloq me'yorlari va musulmon kishining jamiyatdagi o'rni haqida yozilgan muhim diniy-didaktik asardir. Asarda islom dinining asosiy tushunchalari, imon, ibodat, halollik, poklik, sabr-toqat, rostgo'ylik kabi fazilatlar haqida mufassal so'z yuritiladi. Navoiy bu asarni oddiy xalq ham tushunadigan sodda, ravon tilda yozgan bo'lib, uni diniy-ma'rifiy risola sifatida baholash mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur — davlat arbobi, shoir, sarkarda va olim bo'lib, o'zining nazviy asarlarida ilmiy tafakkur va diniy tushunchalarni uyg'un holda bayon etgan.



“Mubayyin” — Boburning diniy-didaktik yo‘nalishdagi asari bo‘lib, unda islom aqidalari, axloqiy fazilatlar, ibodatning mohiyati va musulmon kishining jamiyat oldidagi burchlari bayon etiladi. Bu asarda Bobur tafsir, hadis va fiqh ilmlariga tayangan holda, musulmonlarga zarur bo‘lgan asosiy tushunchalarni sodda va ravon tilda tushuntiradi.

Ikkala mutafakkirning nazviy asarlari o‘z zamonasining ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlariga javob beruvchi, xalqni ilm va din yo‘liga boshlovchi manba sifatida xizmat qilgan.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z nazviy asarlari orqali nafaqat adabiyot, balki ilm-fan, axloq, din va jamiyatga oid chuqur nazariy mulohazalarni ilgari surganlar. “Sirāj al-muslimīn” va “Mubayyin” asarlari orqali ular musulmon shaxsining komil axloqiy qiyofasini chizib, uni jamiyat oldida mas’uliyatli bo‘lishga undaganlar. Bu asarlar bugungi kunda ham yoshlarga ma’rifat, axloq va din asoslarini o‘rgatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ilmiy-ma‘rifiy asarlar manbashunosligi, ilm fanining rivojlanishi va ma‘lumotlarning oshirilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni ifodalaydi. Bu manbalar, ilmiy tadqiqotlarni olib borishda asosiy rolini oynayadi va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni o‘rganishda yordam beradi. Bu asarlar manbashunosligi tarixiy, nazariy, amaliy va tahliliy maqolalardan iborat bo‘lishi mumkin. Tarixiy manbalar, bir davrda yoki davrning boshqa bir jihatini o‘rganish uchun qo‘llanilgan tarixiy hujatlardir. Nazariy manbalar esa ilmiy tadqiqotlar, konseptualar, teoriyalar va falsafiy fikrlardan iboratdir. Amaliy manbalar esa amaliyotga oid qoidalarni va yo‘llanmalarni tushuntiradilar. Tahliliy maqolalar esa mavzuga oid ma‘lumotlarni analiz qilib beradilar. Ilmiy-ma‘rifiy asarlar manbashunosligining ahamiyati shundayki, ularni foydalanuvchilar keng tartibda topish va ularni ichimlik sifatida ishlatish imkonini beradi. Ular bilimdonlar uchun ham muhimdir, chunki ular ilm-fan sohasidagi yangiliklarni o‘rganish va rivojlanishlarini ta‘minlashda yordam beradi.



Xulosa. Bizning nazarimizda, badiiy adabiyot tanlaydigan mavzuning doirasi keng. Adabiyotda mavzu siyosiy, falsafiy shu bilan birga diniy yunalishda ham bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, diniy ruhdagi asarlarning hammasi badiiy adabiyotning ifoda vositasi – so‘zdan foydalanadi. Yoki badiiy adabiyotga xos adabiy janrlar ham diniy asarlarni yuzaga keltirishda xizmat qiladi. Diniy voqeahodisalarini targ‘ib etgan shoirlar o‘z asarlarida fikrni ta’sirchan ifodalash maqsadida badiiy tasvir vositalaridan ham keng foydalanadilar. Ikkinchidan, she’riyatning darsxonasi keng, ifoda tarzi ravon, rangin, badiiy tasvir vositalari yordamida bayon etilishi sababli esda qolishioson bo‘lganidan shariat ahkomlarining nazmda berish an’ana tusini oldi. Shu jihatdan qaraganda, Boburning „Mubayyin“ asari tarkibiga kirgan masnaviyalar shariat qonunlarini targ‘ib qilishidan qat’iy nazar, badiiy adabiyotning ham mulki hisoblanadi. Shu sababli ham adabiyotshunoslik bunday yo‘nalishdagi kitoblarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini belgilay oladi.